



## TERI LEYSHMANIOZINI STATISTIK JIHATDAN AHAMIYATLI BELGILARI

Maxmudov Farxod Axmedovich  
Buxoro davlat tibbiyot instituti

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> January 2024

Accepted: 07<sup>th</sup> January 2024

Online: 08<sup>th</sup> January 2024

### KEY WORDS

Teri leyshmaniozi, klinik turi, limfangit, limfadenit, asoratlangan.

### ABSTRACT

Leyshmaniozning tarqalish darajasi parazitar etiologiyali kasalliklar orasida birinchi o'rirlardan birini egallaydi. Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, teri leyshmaniozi ma'lum mavsumiylik bilan xarakterlanadi. Bemorlar ko'pincha shifokor huzuriga kech murojaat qilishadi. Ammo bemorni davolashdan oldin albatta leyshmaniozni klinik turini, yaralar joylashgan sohalar va yaralar sonini aniqlash kerakli muhim belgilardan biri bo'lib sanaladi.

### Mavzuning dolzarbli

Leyshmaniozning tarqalish darajasi parazitar etiologiyali kasalliklar orasida birinchi o'rirlardan birini egallaydi. Xar yili dunyoda 1 milliongacha odam zararlanadi [1].

Teri leyshmaniozini qo'zg'atuvchisini birinchi marta 1898-yil Toshkentda P.F. Barovskiy aniqlagan [2,3].

Klinik jihatdan, leyshmanioz lokalizatsiyalashgan, surunkali retsidiylanuvchi, tarqoq va o'tkir shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbekiston hududida Leyshmanianing uch turi mavjud: L.major, L.turanica, L.gerbilli [4,5]. Leyshmaniozga qarshi choralarini ishlab chiqishda atrof-muhit omillarini ham hisobga olish kerak. Bu shuni ko'rsatdiki, kasallikning murakkablashuvida atrof-muhit omillari ham katta rol o'ynaydi [6,7].

Eski zamonning teri leyshmaniozlari orasida zoonoz, erta yara hosil bo'lувчи (2-4 haftalik inkubatsiya davri bilan) leyshmanioz, qo'zg'atuvchisi L. major hisoblanadi [8,9,10,11].

Teri leyshmaniozi inkubatsiya davri bilan tavsiflanadi, bu bir necha kundan 3-4 haftagacha, kamdan-kam hollarda 1-2 oyni tashkil qilishi mumkin [12, 13]. Keyinchalik notekis chegarali kuchli yallig'lanishli infiltrat, shish xosil qiluvchi do'mboqcha hosil bo'ladi. Markazi yiringli yarali nekrozga aylanadi. Jarayon og'riqli va atrofi shishli kechadi. 3-6 oydan so'ng jarayon chandiqlanish bilan tugaydi [14,15]. Ko'p xolatda tugunli, og'riqsiz kechuvchi limfangit va limfadenit hosil qiladi [16,17,18]. M.K.Sharipova va boshqa soavtorlar fikriga ko'ra [19] teri leyshmaniozi bilan og'rigan bemorlarning 80 %ida 1-3 ta yara aniqlandi. Leyshmanioz yarasini joylashish joyi muhim klinik ahamiyatga ega bo'lib, ekologik tashuvchining davom etayotgan antropogen transformatsiyasiga bog'liq. Masalan,



X.M.Mustafaev va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra [20, 21] leyshmanioz yarasining muchalarda (oyoq-qo'l) joylashuvi bilan kasallanganlar soni sezilarli darajada ko'payib, yaraning yuz terisidagi joylashuvi esa kamaygan.

## Material va uslublar

Tadqiqotning belgilangan maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, biz zoonoz teri leyshmaniozi bilan kasallangan O'zbekiston Respublikasining Respublika ixtisoslashtirilgan Dermatovenerologiya va Kosmetologiya ilmiy amaliy tibbiyat markazi Buxoro hududiy filialida murojaat qilganlar orasida 110 nafar bemorni aniqlab, statistik tahlillar yig'dik.

## Olingan natijalar va ularning muhokamasi

### 1-jadval

Zoonoz teri leyshmaniozining klinik turlarga qarab taqsimladik

	Klinik turlari	Bemor soni	foiz
1	Yaralangan leyshmanioma (asoratlanmagan)	43	39,09
2	Leyshmanioma limfangit va limfadenit holatli asoratlangan	42	38,18
3	Leyshmanioma do'mboqchali holatli asoratlangan	11	10
4	Leyshmanioma ham limfangit va limfadenit, ham do'mboqchali holatli asoratlangan	14	12,73
jam'i		110	100

Zoonoz teri leyshmaniozining yaralarning lokalizatsiyasini e'tiborga olsak, ularning hosil bo'lishi turli xarakterga ega va bu haqidagi ma'lumotlar 2 -jadvalda keltirilgan.

### 2-jadval

Zoonoz teri leyshmaniozining tanadagi lokalizatsiyasiga ko'ra taqsimladik

Klinik formalari	Qo'llarda	Oyoqlarda	Tanada	Boshda
Yaralangan leyshmanioma (asoratlanmagan)	23	19	2	11
Leyshmanioma limfangit va limfadenit holatli asoratlangan	17	24	3	13
Leyshmanioma do'mboqchali holatli asoratlangan	7	7	1	2
Leyshmanioma ham limfangit va limfadenit, ham do'mboqchali holatli asoratlangan	10	9		2

Aniqlangan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, ko'pchilik bemorlarda teri leyshmaniozi qo'llar va oyoqlarda lokalizatsiya qilingan, keyingi ko'rsatgich bosh sohasida va eng kam uchragan soha bu tana qismidir. Bunga sabab aynan ushbu mavsumda qo'l va oyoq sohalarining ochiq holda bo'lishidir. Oyoqlar terisida yaraning joylashuvi qon tomir va limfa tizimlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, limfangit va limfadenit ko'rinishidagi asoratlar rivojlanib, ular leyshmaniozning asoratlari shakllarining spetsifik klinik ko'rinishini belgilaydi.



# EURASIAN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION

Innovative Academy Research Support Center

Open access journal

www.in-academy.uz

Leyshmaniozda yaralar lokalizatsiyasi teri leyshmaniozining klinik kechishini ko'rsatib beradi. Yaralarning yuz sohasida lokalizatsiyasi, tez rivojlanuvchi, qirralari tekis bo'limgan, chuqurroq yaralar hosil bo'lishi bilan kechadi. Badan terisida yaralarning o'lchamlari katta va oz miqdordagi yiring oqishi bilan ajralib turardi. Yaralarni oyoqlarda joylashuvi, ko'p miqdorda yiringli ajralmalar, limfangit va limfadenitning aniq belgilari bilan kechadi.

## 3-jadval

Zoonoz teri leyshmaniozining tanadagi leyshmanioma yaralar soniga ko'ra taqsimladik

Klinik formalari										
	1 ta yara		2-4 ta yara		5-7 ta yara		8-10 ta yara		10 tadan ko'p	
		%		%		%		%		%
Yaralangan leyshmanioma (asoratlanmagan)	15	13,6	21	19,1	3	2,7	3	2,7	1	0,9
Leyshmanioma limfangit va limfadenit holatlari asoratlangan	16	14,5	15	13,6	2	1,8	7	6,3	2	1,8
Leyshmanioma do'mboqchali holatlari asoratlangan	4	3,6	4	3,6	2	1,8	1	0,9		
Leyshmanioma ham limfangit va limfadenit, ham do'mboqchali holatlari asoratlangan	2	1,8	6	5,4			1	0,9	5	4,5
	37	33,6	46	41,8	7	6,3	12	10,9	8	7,3

Bizning tadqiqotimizda zoonoz teri leyshmaniozi bilan og'rigan 110 nafar bemorlardan , bir bemor leyshmanioma yarasining maksimal soni 13 taga yetdi. Son jihatdan 1-4 tagacha bo'lgan yaralar juda ham ko'p foizlarda namoyon bo'ldi.

## References:

1. Вьюков В. Н. 1969. Многолетняя динамика численности москитов в очаге зоонозного кожного лейшманиоза Юго-Восточной Туркмении. В кн.: III совещ. по лейшм. и др. троп, трансмис. природно-очаговым болезням людей Ср. Азии и Закавказья. Ашхабад, 28—30 мая 1969 г., М. : 56—58.
2. Ханафиева, И.В. Применение иммуностимуляторов в терапии зоонозного кожного лейшманиоза : диссертация на соискание ученой степени кандидата медицинских наук / Ханафиева Ирина Владимировна- Ашхабат, 1996.
3. Maxmudov, F. A., Raxmatov, O. B., Latipov, I. I., Rustamov, M. K., & Sharapova, G. S. (2021). Intravenous laser blood irradiation in the complex treatment of patients with cutaneous leishmaniasis. 湖南大学学报(自然科学版), 48(9).
4. Махмудов, Ф. А., & Латипов, И. И. (2019). Атопический дерматит: иммунопатогенез и стратегия иммунотерапии. Новый день в медицине, (4), 195-200.



# EURASIAN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION

Innovative Academy Research Support Center

Open access journal

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

5. Елисеев Л. Н., Стрелкова М. В., Жерихина И. И. Особенности эпидемической активизации природного очага ЗКЛ в местах симпатричного распространения L.major, L.tiranica, L.gerbilli // Мед. паразитол. и паразитар. болезни. - 1991. - №3. - С. 24-29.
6. Maxmudov, F. A., & Latipov, I. I. (2019). The immunopathogenesis of atopic dermatitis and strategy of immunotherapy. Новый день в медицине, (4), 53-57.
7. Zhang, W.-W. & Matlashewski, G. Screening Leishmania donovani Complex-Specific Genes Required for Visceral Disease. Methods Mol. Biol. 1201, 339–61 (2015).
8. Advances in leishmaniasis / H. W. Murray [et al.] // Lancet. - 2005 Oct-Nov. - Vol. 366, N 9496. - P. 15611577.
9. Makhmudov, F. A., & Gulomova, S. K. (2021). Changes in skin leishmaniasis after local treatment. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(1), 1744-1749.
10. Axmedovich, M. F., Samadovna, S. G., & Obidovich, S. S. (2021, May). Observation of immunological changes during clinical cycles of skin leishmaniosis. In Euro-Asia Conferences (Vol. 5, No. 1, pp. 207-211).
11. Rakhmatov, O. B. (2021). IMPROVING THE PRINCIPLES OF TREATMENT IN PATIENTS WITH ZOONOTIC LEISHMANIASIS WITH THE IMMUNOMODULATOR GEПON AND METHYLENE BLUE USING THE ALT-VOSTOK DEVICE. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(9).
12. Иванов О. Л. Кожные и венерические болезни. – Москва: Медицина, 1997. - С. 140-143.
13. Родякин Н. Ф. Кожный лейшманиоз. – Ашхабад: 1982. – 190 с.
14. Axmedovich, M. F., Ikromovich, L. I., & Hamza o'g'li, O. J. (2021). Statistics of the incidence of cutaneous leishmaniasis in the Bukhara region, depending on age, gender and region. Middle European Scientific Bulletin, 17, 373-377.
15. Дерматология Фитцпатрика в клинической практике // Клаус Вольф, Лоуэлл А. Голдсмит, Стивен И. и др. Под общ. ред. акад. Кубановой А. А. Т. 1. М.: Бином, 2012. 896 с
16. Беляева Т.В. Под ред. Шуваловой Е.П. Инфекционные болезни Серия «Учебник для медицинских вузов» 2004
17. Axmedovich, F. M., & Amonovich, D. Y. (2021). Clinical Criteria for the Manifestation of Atopic Dermatitis in Schoolchildren, Depending on Age. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2(5), 335-339.
18. Махмудов, Ф. А., Латипов, И. И., Озодов, Ж. Х., & Юсупов, Д. А. (2020). VITILIGO EXTENT TENSITY INDEX (VETI) SCORE: A NEW DEFINITION, ASSESSMENT AND TREATMENT EVALUATION CRITERIA IN VITILIGO. Новый день в медицине, (1), 276-279.
19. Шарипов М. К., Раззаков Ш. А., Краснонос Л. Н. и др. /Зоонозный кожный лейшманиоз в Узбекистане и его профилактика / / Мед. паразитол. и паразитар. болезни. - 1987. - №1. - С. 39-45.
20. Шаропова, Г. С. (2022). Изучить Эффективность Экстракта Алоэ При Местном Применении Зоонозного Лейшманиоза. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES, 2(7), 216-220.



# EURASIAN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION

Innovative Academy Research Support Center

Open access journal

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

21. Мухаммедов С. М. Клинические наблюдения за больными кожным лейшманиозом сельского типа, леченных мономицином // Мед. журнал Узбекистана. - 1967. - №9. - С. 33-34.